

Buxoro davlat pedagogika instituti

Geografiya kafedrası dotsenti

N.Sh.Shadiyeva

Geografiya ta'lim yo'nalish talabasi

Rahimov Shahzod Xasan o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi kundagi iqtisodiy savodxonlik tog'risida va undagi ba'zi muammolar va ularni yechishga qaratigan fikrlar hamda chet el savodxonlik darajasiga, yurtimizdagi iqtisodiy savodxonlik qilingan va qilinishi kutilayotgan ishlar haqida fikrlar bildirishi bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy savodxonlik, ta'lim, metodlar. o'quv qollanma, darslik. uslubiy qo'llanma, Moliaviy savodxonlik, Moliaviy savodxonlik indeksi, savodxonlik ko'rsatkichlari, Iqtisodiyot, Pedagogika

Annotation. This article is devoted to present-day economic literacy and some of its problems and ideas for their solution, as well as the level of foreign literacy, economic literacy in our country, and what is expected to be done.

Keywords: economic literacy, education, methods. study guide, textbook. methodological guide, Financial literacy, Financial literacy index, literacy indicators, Economy, Pedagogy

Аннотация. Данная статья посвящена современной экономической грамотности и некоторым ее проблемам и идеям их решения, а также уровню зарубежной грамотности, экономической грамотности в нашей стране и тому, что предполагается сделать.

Ключевые слова: экономическая грамотность, образование, методы. учебное пособие, учебник. методическое пособие, Финансовая грамотность, Индекс финансовой грамотности, показатели грамотности, Экономика, Педагогика

Mamalakatimizda va dunyoda tobora iqtisodiyot o'sib rivojlanib bormoqda. Insonlar turnush tarzini yaxshilash aholi daromadini oshirish va kambag'allikni qisqartirish borasida ko'p ishlar olib borilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil kambag'allikni qisqartirish yuzasidan bergan farmonlari davlat bosh siyosati etib belgilandi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28.01.2022 yildagi PF-60 son "2022–2026-yillarga Mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" "Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi". Degan fikrlar ostida yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, mahallalarda kambag'allikni qisqartirish va respublikada bandlikni oshirish borasida ko'plab chora-tadbirlar va takliflar berishga qaratilgan vazifalar keltirilgan. Bu borada pedagogic ta'lim xizmati ham katta. Zero maktab o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy savodxonlik bilimlari berilishi va takomillashtirili lozim. Bo'lajak geografiya fani mutaxassislarida iqtisodiy savodxonlik rivojlantirili bu kelak avlod uchun va aholi uchun juda katta xizmat qiladi, Bu borada bizda ko'plab yana yangi ishlar o'quv dasturlari uslubiy qollanma va metodlar ishlab chiqilishi zarur. Chet elda xususan Rossiyada aholining iqtisodiy savodxonlik darajasi NAFI analitik markazining ma'lumotiga ko'ra bugungi kunda rossiyaliklarning 70 foizi yuqori yoki o'rtacha moliyaviy savodxonlik darajasini namoyish etadi. 30% - past. 2022 yildagi o'lchovlar bilan solishtirganda, xulq-atvorni saqlab qolish niyatida bo'lgan odamlar ulushi oshdi (bugun 33%, 2022 yilda 29%). Shu bilan birga, ruslar moliyaviy arifmetika bilan yomonroq kurasha boshladilar: ikki yil oldin 48% omonat bo'yicha foizlarni to'g'ri hisoblashi mumkin edi, hozir - 46% (2 foiz punktga kam).

NAFI tahliliy markazi 10 yildan ortiq vaqt davomida rossiyaliklarning moliyaviy savodxonligi darajasini o'lchab keladi. 2024 yil fevral oyida o'tkazilgan tadqiqotning so'nggi to'lqiniga* ko'ra, o'rtacha va yuqori savodxonlik darajasiga ega ruslarning ulushi 70% ni tashkil qiladi. 2018 yildan boshlab

moliyaviy savodxonlik indeksi moliyaviy savodxonlik darajasini o'lchash uchun qo'llanilib kelinmoqda, bu shaxsning shaxsiy moliyasini oqilona boshqarish qobiliyatini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkich 1 dan 21 ballgacha** oralig'ida o'lchanadi. 2024 yilda rossiyaliklarning moliyaviy savodxonligi indeksi 12,77 ballni tashkil etdi (2018 yildagi 12,12 ballga nisbatan 5,3 foizga o'sish). Indeks 2022 yilga nisbatan o'z pozitsiyasini saqlab qoldi. 2024 yilda rossiyaliklarning moliyaviy savodxonligi indeksi 12,77 ballni tashkil etdi (2018 yildagi 12,12 ballga nisbatan 5,3 foizga o'sish). Indeks 2022 yilga nisbatan o'z pozitsiyasini saqlab qoldi. Bundan tashqari rossiyada bu borada ham oilada ham oliy ta'lim muassasalarida va aholida kurslarda bepul va pullik qo'shimcha darslar va kurslar tashkil etilgan. Shu sababdan e'tiboringizni quydagi jadvalga qarating. (1-jadvalga qarang)

Rossiyaliklarning moliyaviy savodxonligi indeks ko'rsatkichi

1-jadval

Yillar	2018	2020	2022	2024
Moliyaviy savodxonligi indeks	12.12	12.35	12.79	12.77

Rossiyaning eng moliyaviy savodli aholisi 35 yoshdan oshgan erkaklar va ayollar, oliy ma'lumotli, ko'pincha turmush qurganlar va yirik shaharlarda yashovchilardir. Moliyaviy savodxonlikning past darajasi yoshlar, ishsiz ruslar, qishloq yoki chekka hududlar aholisi uchun xosdir. 2018 yildan beri 6 yil davomida savodxonligi yuqori va o'rtacha bo'lgan ruslarning ulushi asta-sekin o'sib bormoqda, moliyaviy savodxonligi past bo'lgan ruslarning ulushi esa kamaymoqda. 2022 yilga nisbatan bugungi kunda 2 p.p. savodxonligi past bo'lgan odamlar ko'proq edi va 1 p.p. - yuqori bilan. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikning o'rtacha darajasini ko'rsatadigan rossiyaliklarning ulushi 3 foiz punktga kamaydi, (2-jadvalga qarang)

Moliaviy savodxonligi turli darajadagi rossiyaliklar.

2-jadval

Yillar	2018	2020	2022	2024
Moilaviy savodxonlik past darajasi (1-11ball)	44	41	28	30
Moilaviy savodxonlik o'rtacha darajasi(12-15 ball)	46	47	57	64
Moilaviy savodxonlik yuqori darajasi(16-21 ball)	10	12	15	16

O'zbekistonda bu borada aniq ko'rsatkichlar yo'q. Biroq bizda iqtisodiy savodxonlik yuzasidan turli darsliklar, o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Ularda talabalar Bozor iqtisodiyoti asoslari, Makro va Mikro iqtisodiyot, Bozor munosablari, Moliya, soliq va soliqqa toritish, kredit munosablari, Iqtisodiyot, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari o'qitish metodikasi va boshqa o'nlab mutaxassis va nomutaxassis fanlar o'qitiladi. Bundan tashqari biznes treninglar moilaviy savodxonlik kurslari iqtisodiy maslaxatchilik xizmatlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bular esa albatta o'z natijasini bermoqda. Shu sababli pedagogik va psixologik jihatdan ham bu borada aholi va bo'lajak mutaxassislarga yetarli bilim bersish va yangilik izlash yangilanish bilimlarni takomillashtirish zarur. Ana shundan kelib chiqqan holda iqtisodiy va noiqtisodiy yo'nalishdagi OTM talabalariga iqtisodiy ta'lim berish, ularning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish muammosini ilmiy-pedagogik nuqtai-nazardan o'rganish zarur ekanini anglash kerak. Bu pedagogik o'quv jarayoni mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Bu borada A. O'lmasov, A. Vahobov, A. Abdullaev, A. Soliev, U. Inoyatov, G. Nazarova, M. Mirsaidov, N. Yo'ldoshev, S. G'ulomov, V. G. Matveev, B. T. Salimov, H. T. Ahmadxo'jaev, N. Sanaev, N. Kamolova va boshqa ko'plab iqtisodchi-olimlar o'z ishlarida o'rta iqtisodiy OTM talabalariga iqtisodiy bilim berish muammosini yoritganlar. Iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish iqtisodiy savodxonlik muammosi butun dunyo iqtisodchilari, sotsiologlari, faylasuflari, psixologlari, pedagoglarini hamisha o'ylantirib kelgan muammodir. Barcha soha olimlari iqtisodiy savodxonlikning jamiyat taraqqiyoti uchun o'ta muhim va zarurligini e'tirof etadilar.

Hozirgi kundagi O'zbekistondagi muammo bu yuqoridagi qilingan ishlarga qaramay aholi va maktab oliy ta'lim o'quvchi va talabalarida iqtisodiy savodxonlik qanchalik muhimligini anglamaslik va buning oqibatiga qiziqmaslikdir. Bunga sabab esa yoshlarda va ota-onalarning bandligi bekerak ortiqcha narsalarga ijtimoiy tarmoqlar internet va boshqa joylarda behuda ko'p vaqt sarflashlikdir. Bunga asos qilib aytadigan bo'lsak bu ijtimoiy tarmoqlarini kuzatish xizmati ma'lumotiga ko'ra you tube instagramm, tiktok platformalarida eng ko'p kiradigan va faol turadigan davlat O'zbekiston ekan. Bu bizning qanchalik ta'limdan va tarbiyadan uzoqlashayotganiz va kitob o'qimay qo'yganimiz xavfidir. Bugungi kun internet va raqamli axborotlar asridir, ammo shuni ham unutmaslik kerakki har narsadan to'g'ri yo'lda foydalanmoqlik va foydali narsalar va g'oyalar yaratmoqlik kerak. Buning uchun esa doimo izlanish o'qish va bilim olish zarur. Pedagogika esa bu borada yetakchi ro'l o'ynaydi. Muammoga tik boqadigan bo'lsak hozirgi oldimizdagi dolzarb mavzu bu qanday qilib hozirgi zamon va kelak avlodga kerakli va yetarli bilim berish ularda qanday qilib fanga va vatanga jamiyatga bo'lgan milliy va faxr tuyg'ularini uyg'otish ularni ajdodlarimizga mos bo'lgan davomchi qilish kabi vazifalar turibdi. Fanga bilimga bo'lgan qiziqish yuqolib borishi sabab bir tomondan yoshlar qiziqishi avvalgi avloddan farq qilishi zamon tez oldinlab ketishi bo'lsa yana bir sabab fanlardagi o'qtish texnologiyalari eskirib borishi yangilik yaratilmasligi bu borada yetarkli malakali kadrlar yo'qligi hamdir. Hozirgi kun uchun IT texnologiyalari bilan birga chambarchas bo'lgan holda yangi o'quv dasturlar qo'llanmalar va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilishi oqsashidir.

Bo'lajak geografiya ta'lim mutaxasislarda iqtisodiy savodxonlikni rivolantirish uchun, asosiysi bir joyda eskilikda qotib qolmay zamon bilan bir zaylda oldinga intilib yangilik yaratish eski o'z kuchini va ahamiyatini yo'qotgan va yo'qotib borayotgan usul dasturlardan manbalardan voz kechib hozirda amaldagi foyda beradigan bilimlarni takomilashtirish va yangilash kerak. Bu borada qilinishi mumkin bo'lgan ish sifatida shuni takidlash kerakki hozirgi kunda iqtisodiy savodxonlikga faqat chet el tajribalariga suyangan holda emas

yetakchi malakali kadrlar yordamida milliy dastur ham ishlab chiqish zarur. Bu borada beriladigan takliflarga misol qilib quyidagilarni takidlash mumkin.

1. Ta'limda interfaol metodlar bo'yicha har bir fan uchun alohida online virtual dasturlar ishlab chiqili kerak.

2. Aholi o'rtasida iqtisodiy saxodxonlika bag'ishlanga metinglar ommaviy yig'ilishlar o'tkazilishi kerak, hech bo'laganda 1-yilda 2 marta.

3. Televideniya. Ommavit axborot vositalari, gazate va jurnallarda iqtisodiy savodxonlikka bag'ishlangan maqola va ko'rsatuvlar tashkil etilishi zarur.

4. Maktab va OTM larda iqtisodiy savodxonlikga doir materiallar bazasi yangilash va hozirgi zamon talablariga mos dasturlar o'qitish metodlari yaratilishiga keng imkoniyatlar berish kerak.

5. bilim borasida chiqariladigan kitoblar adabiyotlar keng ommaga talqin qilinishi va amaliy ishlar olib borilishi kerak.

6. IT sohasida dastur yaratuvchi dasturchilar bilan OTM pedagogiklar o'rtasida keng hamkorlik qilinishi 3D dasturlar yaratishga davlat tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishi lozim.

7. Yoshlar ongiga salbiy ta'sir etuvchi baracha narslarni xususan ijtimoiy tarmoqlardagi media larni keskin filtr qilib ta'qiqqlar qo'yish va butunlay yo'q qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Pzidenti Farmoni 28.01.2022 PF-68 son
2. Jumanov Xayitmurot Toshniyozovich. Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma . Toshkent –2021 yil
3. Sh.X. Tashmatov Iqtisodiy ta'limotlar tarixi Darslik Toshkent –2021 yil
4. <https://nafi.ru/analytics/indeks-finansovoy-gramotnosti-rossiyan-2024>